Abstract: The article discusses the prospects for developing new methodological solutions that allow for the most reliable assessment of the contribution of intellectual property products to Uzbekistan's economic development. Proposals are presented to adjust the gross domestic product indicator by considering the capitalization of certain components within the intellectual property product group. The findings provide an important methodological foundation for improving the measurement of the economic turnover of intellectual property products. In particular, the article develops recommendations for expanding the statistical information base by enhancing the methodology of calculating intellectual property products at the macroeconomic level in accordance with the SNA-2008 classification.

Key words: Macroeconomic indicators, gross domestic product, system of national accounts, intellectual property products (IPP), investment in intellectual property, institutional frameworks, methodology, research and development.

Аннотация: В статье обсуждаются перспективы разработки новых методических решений, позволяющих наиболее достоверно оценить вклад продуктов интеллектуальной собственности в экономическое развитие Узбекистана. Приводятся предложения по корректировке показателя валового внутреннего продукта с учетом капитализации отдельных компонентов группы продуктов интеллектуальной собственности. Полученные результаты формируют важную методологическую основу для совершенствования методики измерения экономического оборота продуктов интеллектуальной собственности. В частности, в статье разработаны предложения и рекомендации по расширению базы статистической информации путем совершенствования методики расчета продуктов интеллектуальной собственности на макроэкономическом уровне в соответствии с классификацией СНС-2008.

Ключевые слова: макроэкономические показатели, валовой внутренний продукт, система национальных счетов, продукты интеллектуальной собственности (ПИС), инвестиции в интеллектуальную собственность, институциональные основы, методология, научные исследования и разработки.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining intellektuallashuv sharoitida intellektual mulk mahsulotlarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirining ahamiyatini tushunish juda muhimdir. Buning uchun ilmiy jihatdan asoslangan

baholash vositalari zarur. Biroq, intellektual mulk mahsulotlarining turli komponentlarini o‘lchashga oid metodologik qoidalar o‘rtasidagi uyg‘unlik yo‘qligi sababli bunday yondashuvlar yetarlicha rivojlanmagan. O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosati iqtisodiyotni tarkibiy qayta tuzish orqali ilmiy-texnologik suverenitetga erishishga qaratilgan sharoitda intellektual mulk mahsulotlarining salohiyatlarini ochib berish ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Tashqi tahdidlarga barqaror intellektual mulk tizimi ilmiy-texnologik suverenitetni ta‘minlovchi kafolat bo‘lib, muhim strategik resurs va iqtisodiy rivojlanishning samarali vositasi bo‘lib qoladi.

Zamonaviy iqtisodiyotda va uning asosida yotadigan funksional modelga qarab bilimlar iqtisodiyoti, raqamli iqtisodiyot, internet-iqtisodiyot, intellektual iqtisodiyot va boshqalar kabi turli shakllarda aniqlanadigan iqtisodiyotda intellektual mulk mahsulotlari iqtisodiy aktivlarning eng muhim turlaridan biri sifatida ko‘riladi. Ularning sifatli xususiyatlari, xususan, ishlab chiqarish, yakuniy iste‘mol va asosiy kapitalni jamg‘arilishi jarayonlarida foydalanish miqyosining o‘shishi alohida mamlakatlar va mintaqalarning yuqori va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy statistikani yanada takomillashtirish va milliy hisoblar zamonaviy tizimini joriy etish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar kompleksida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar qamrovining to‘liqligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste‘mol usulida hisoblash metodologiyasini takomillashtirishni nazarda tutuvchi milliy hisoblar zamonaviy tizimini 2020 yil 1 yanvardan boshlab bosqichma-bosqich joriy etish tartibi belgilab berilgan. [1]

Ushbu tartib va vazifalardan kelib chiqib, bugungi kunda milliy hisoblar zamonaviy tizimini (MHT-2008) joriy etish, milliy statistikada intellektual mulk mahsulotlari (IMM) hisobini yuritish metodologiyasining konseptual asoslarini yaratish hamda ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarning yangi talqinini qo‘llash bo‘yicha hisob-kitoblarga muvofiqligini ta‘minlashi kerakligini ko‘rsatadi, bu esa ma‘lumotlarning ishonchligi va analitik qiymatining asosiy talabidir. Bu o‘z navbatida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda IMMni ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqishni hamda statistik axborotlar bazasini kengaytirishni dolzarb vazifa qilib belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Halqaro standartlar, qo‘llanmalar, metodologiyalarda hamda iqtisodiy adabiyotlarda milliy hisoblar tizimida intellektual mulk mahsulotlari hisobini yuritishning institutsional asoslari bo‘yicha keng ilmiy-nazariy, tashkiliy-huquqiy hamda uning uslubiy masalalari o‘rganilgan. Xususan, “Milliy hisoblar tizimi (MHT) makroiqtisodiy darajada intellektual mulk mahsulotlarini hisobga olishning umumiy uslubiy asosi hisoblanadi.” [2] Shuningdek, intellektual mulk mahsulotlarini hisobga olish va o‘lchashning statistik metodologiyasining o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida batafsil ma‘lumot to‘plash quyidagi qo‘llanmalarda mavjud. Bular, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ning “Intellektual mulk mahsulotlari shaklidagi kapitalni o‘lchash bo‘yicha qo‘llanma” [3] (OECD - Organisation for Economic Co-operation and Development), “Xalqaro xizmatlar savdosi statistikasi bo‘yicha qo‘llanma” [4] (MSITS-Manual on Statistics of International Trade in Services 2010 (MSITS 2010)), “To‘lov balansi va xalqaro investitsiya pozitsiyasi bo‘yicha qo‘llanma” [5] (Balance of Payments and International Investment Position Manual, Sixth Edition (BPM6) 2009), va “Kengaytirilgan to‘lov balansi xizmatlari tasnifi” [6] (Extended Balance of Payments Services classification (EBOPS, 2010)).

Intellektual mulk mahsulotlarini hisobga olish metodologiyasida o‘rganilmagan va kam tadqiq qilingan yo‘nalishlardan biri, intellektual mulk obyektlarining tijoratlashuvi natijalarini makroiqtisodiy statistika ko‘rsatkichlarida aks ettirish bilan bog‘liq. Xususan ushbu ko‘rsatilgan masalalar ustida AQSH Yuta universiteti (University of Utah)ning huquq professori Jorge L. Contreras, hamda AQSHning nufuzli universitet olimlardan Christopher Heer, Dominic Cerilli, Daryna Kutsyna, Annette Latoszewska, Michelle Huonglar tegishli amaliy ishlanmalar va metodologiyalar tajriba darajasida amalga oshirilmoqda. [7,8]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun kompleks metodlar qo‘llaniladi, ularga quyidagilar kiradi: umumiy ilmiy metodlar - iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish metodlari, rasmiylashtirish va solishtirma tahlil metodlari; maxsus metodlar - o‘rganilayotgan obektni tizimlashtirish, o‘rganilayotgan jarayonlarning makroiqtisodiy statistikada asosiy ko‘rsatkichlarni shakllantirish jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish metodlari shuningdek, xalqaro qo‘llanmalar va standartlar, xalqaro metodologiya va statistik hisobot satandartlari hisoblanadi.

Milliy hisoblar tizimida intellektual mulk mahsulotlarini makroiqtisodiy darajada hisobga olishning metodologik asosini, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi tashkilotlarda, Milliy statistika qo‘mitasida ishlab chiqilgan metodologiyalar hamda xalqaro tashkilotlarning, jumladan MHT-2008, IHTT, Evrostat, “Oslo Yo‘riqnomasi 2018”, “Fraskati Yo‘riqnomasi 2015”ning yangi tavsiyalariga muvofiq amalga oshirilayotgan normativ-huquqiy hujjatlaridagi o‘zgarishlar hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizdagi takomillashtirilayotgan makroiqtisodiy statistika oid metodologik tavsiyalar asosan xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilayotgan qo'llanmalar hamda MHT-2008 talablari asosida ishlab chiqilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, milliy hisoblar tizimida intellektual mulk mahsulotlarini makroiqtisodiy darajada hisobga olishning metodologik asosi hamda ilmiy amaliy manbalari statistikada yetishmovchiligi sababli biz aynan ushbu masalaga kengroq to'xtalishini lozim topdik. Ma'lumki, institutsional sektorlaridagi intellektual mulk mahsulotlari xarajatlarini qayd etish bo'yicha 2008 yilgi MHT talablariga muvofiq bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan biz ushbu operatsiyalarni asosiy tushunchalari, ta'riflari va klassifikatsiyalari hamda ularni amalda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqdik. Shuni ta'kidlash kerakki, 2008 yilgi MHTdagi ushbu operatsiyalarning yangi talqini, kapital operatsiyalari hisobida (1993 yilgi MHT bilan solishtirganda) o'zgarishlarga olib keladi, shuningdek, unga bog'liq bir qator boshqa hisoblarda ham o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Kapital operatsiyalari hisobidagi ba'zi muhim ko'rsatkichlar boshqa hisoblardagi yozuvlarni yig'ish orqali hisoblanishi mumkin, masalan, bu sarmoya ko'rsatkichiga tegishli bo'lib u kapital operatsiyalari hisobida investitsiyalarni moliyalash manbai bo'lib xizmat qiladi va daromadni ishlatish hisobida balanslashtiruvchi element sifatida ko'riladi. Asosiy kapitalga investitsiya ko'rsatkichlari ishlab chiqarish hisobidagi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, boshqa dunyo hisoblaridagi import va eksport ko'rsatkichlari va tovarlar va xizmatlar hisoblari bilan yaqin aloqadordir. Intellektual mulk mahsulotlarini yangi talqini iqtisodiyotning barcha sektorlari bo'yicha turli hisoblarni, ishlab chiqarish hisoblaridan to aktivlar va passivlar balanslarigacha qamrab oladi. Shu o'rinda intellektual mulk mahsulotlaridan foydalanish ko'rsatkichlarini ularning resurslari ko'rsatkichlariga nisbatan shakllantirishni 1-jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilib chiqsak.

1-jadval. Resurslar va Intellektual mulk mahsulotlaridan foydalanish ko'rsatkichlari [14]

		Jami	Sh jumladan institutsional sektorlarda IMM iste'moli				
			Korporatsiya		Davlat boshqaruvi sektori	UXXKHT	Tashqi sektor
			IMMdan tashqari	IMM			
A	B	1	2	3	4	5	6
Institutsional sektorlar bo'yicha ishlab chiqarish							
Korporatsiya	1.	+	+	+	+	+	+
Shu jumladan							
xizmatlarni sotish (aktiv bo'lmagan litsenziyalarni sotish bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish bundan mustasno)	2.	+	+	+	+	+	+
aktiv bo'lmagan litsenziyalarni sotish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish	3.	+	+	+	+	+	+
tugallanmagan ishlab chiqarishning o'zgarishi	4.	+	+				
shaxsiy foydalanish uchun xizmatlar ishlab chiqarish	5.	+	+				
Davlat boshqaruvi	6.	+	+	+	+	+	+
Sh jumladan:							
nobozor ishlab chiqarish	7.	+			+		
bozor ishlab chiqarish	8.	+	+	+	+	+	+
undan:							

xizmatlarni sotish (aktiv bo'lmagan litsenziyalarni sotish bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish bundan mustasno)	9.	+	+	+	+	+	+
aktiv bo'lmagan litsenziyalarni sotish bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish	10.	+	+	+	+	+	+
Uy xo'jaligi	11.	+	+	+	+	+	+
Jami ishlab chiqarish	12.	+	+	+	+	+	+
Import	13.	+	+	+	+	+	+
Jami resurslar	14.	+	+	+	+	+	+
Shu jumladan foydalaniladi							
yalpi asosiy kapitalni jamg'arilishi	15.	2 dan 5 gacha bo'lgan ustunlar yig'indisi	2 ustun bo'yicha 2+5+9+11 qator		4 ustun bo'yicha 2+7+9+11 qator	5 ustun bo'yicha 2+9+11 qator	
oraliq iste'mol	16.	2 dan 5 gacha bo'lgan ustunlar yig'indisi	2 ustun b o'yicha 3+10 qator	3 ustun b o'yicha 2+3+6+8+11 qator	4 ustun b o'yicha 3+10 qator	5 ustun b o'yicha 3+10 qator	
tugallanmagan ishlab chiqarishni o'zgarishi	17.	2 dan 5 gacha bo'lgan ustunlar yig'indisi		3 ustun 4 qator			
eksport	18.	6 ustun					6 ustun 1+6+11 qator
“+” bu operatsiyani yozib olish imkoniyatini bildiradi							

Ilmiy-tadqiqot xarajatlarining yangi talqinini qo'llash bo'yicha ishlarning dastlabki bosqichlarida kapital bo'yicha sof daromadni hisoblamaslik mumkin ko'rinadi, chunki bu metodologiya va tegishli ma'lumotlarni olish bilan bog'liq murakkab muammolarni hal qilish zarurligini o'z ichiga oladi. Bu masalalar, xususan, aktivlarni bozor narxlarida baholash va sof daromad stavkasini tanlash bilan bog'liq. Shu bilan birga, 2008-yilgi MHT va unda qabul qilingan konvensiyalarga muvofiq, kapital bo'yicha sof daromadni baholash, bozordan tashqari ishlab chiqaruvchilarning mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari miqdoridan kelib chiqqan holda baholanishiga kiritilmasligi kerak.

Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xizmatlarining iste'molchilari har qanday institutsional birliklar bo'lishi mumkin, shu jumladan yuridik shaxs bo'lmagan (nokorporativ) uy xo'jaligi korxonalari va UXXKNTlar. Shu alohida taklamoqchimizki, yuqorida aytib o'tilganidek UXXKNTlar ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xizmatlarini ishlab chiqaruvchilari bo'la olmaydi. Foydalanish bosqichida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik xizmatlarini ishlab chiqarishning barcha xarajatlari quyidagi elementlarga bo'linishi kerak: asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi; tovar-moddiy zaxiralarning o'zgarishi; oraliq iste'mol; eksport. Boshqa bo'linmalar va tarmoqlardan sotib olingan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xizmatlari uchun yalpi asosiy kapitalni jamg'arilishi xaridorning narxlarini bo'yicha baholanadi. Bunda barcha mahsulot soliqlari (jumladan, chegirib tashlanmaydigan QQS) qo'shilib mahsulotlarga subsidiyalar ajratib tashlanadi. O'z ishlab chiqarishining ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xizmatlari bo'yicha yalpi asosiy kapital jamg'arilishi ishlab chiqarish hisobida ularning mahsuloti qanday baholansa, xuddi shunday qiymatda olinishi kerak.

Biz quyidagi 2-jadval orqali MHT-2008da Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni ishlab chiqarish va foydalanishni talqin qilishga oid qoidalar tizimlashitirilganligini ko'rishimiz mumkin.

2-jadval. Ilmiy-tadqiqot natijalari va undan foydalanishning MHT-2008da aks ettirish [14]

Ishlab chiqarish	Foydalanish
Bozor ishlab chiqarilishi: - korporatsiyalar; - davlat boshqaruvi sektori birliklari (bozor muassalari); nokorporativ korxonalar.	Foydalanuvchilarning yalpi asosiy kapitalini jamg'arilishi ("Tadqiqot va ishlanmalar" sohasida faoliyat yurituvchilar va aktiv bo'lmagan litsenziyalarni sotib oluvchilar bundan mustasno); Foydalanuvchilar tomonidan oraliq iste'mol ("Tadqiqot va ishlanmalar" sohasida faoliyat yurituvchilar va aktiv bo'lmagan litsenziyalarni sotib oluvchilar bundan mustasno); Ishlab chiqaruvchilar o'rtasida aylanma mablag'lar (tugallanmagan ishlab chiqarish) zahiralarning o'zgarishi; Eksport.
Bozor ishlab chiqaruvchilarni (korporatsiyalarni) o'z foydalanishlari uchun ishlab chiqarishi	Ishlab chiqaruvchilarning yalpi asosiy kapitalini jamg'arilishi (korporatsiyalar)
Davlat boshqaruvi sektori birliklarining (nobozor korxonalarining) bozordan tashqari ishlab chiqarishi	Davlat boshqaruvi sektori birliklarining yalpi asosiy kapitalini jamg'arilishi
Egasiga foyda keltirmaydigan ishlab chiqarish	Ishlab chiqaruvchining oraliq iste'moli

Ilmiy-tadqiqot faoliyati ishlab chiqarishning asosiy qismini oraliq iste'moldan jamg'arishga o'tkazish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga sarflanadigan xarajatlarni tezlashtirish sharti bilan yalpi ichki mahsulotning mutlaq qiymatining, shuningdek, uning o'sish sur'atlarining oshishiga olib keladi. Ilmiy-tadqiqot xizmatlarining narxi kelajakda undan foydalanishdan kutilayotgan iqtisodiy foydani hisobga olgan holda belgilanishi kerak. Asosan, bu xizmatlarning bozor narxida aks etadi. Ilmiy-tadqiqot xizmatlarining bozor bahosi to'g'risida to'g'ridan to'g'ri ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda, ularni joriy xarajatlar miqdori, shu jumladan natijalarni bermagan ishlarning xarajatlari bilan baholash mumkin.

Milliy hisoblar tizimida intellektual mulk mahsulotlarini makroiqtisodiy darajada hisobga olishda ularni bozor baholarida baholash metodologiyasini takomillashtirish talab etiladi. Milliy iqtisodiyotda IMni baholash, ikkita asosiy yo'nalish bilan bog'liq holda keng qo'llaniladi, bu mulkni tijoratlashtirish va kapitallashtirishdan foydalanishdir.

2008-yilgi MHTda ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xarajatlarining yangi talqini munosabati bilan turli ko'rsatkichlar va hisoblar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muvofiqlashmagan masalalari yuzaga keldi. Xususan, xalqaro uslubiy tavsiyalarni keng jamoatchilik institutlari bilan muhokama qilinayotgani, o'zaro munosabatlar bo'yicha yuqorida keltirilgan tushuntirishlarni umumlashtirishga va ularni yanada tizimli shaklda taqdim etishga harakat qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, 2008-yilgi MHTda ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarining yangi talqini, kapital hisobining quyidagi moddalariga bevosita ta'sir qiladi: yalpi asosiy kapitalning jamg'arilishi; asosiy kapitalning iste'moli; tovar-moddiy zaxiralarning ko'payishi; jamg'arma.

ITI xarajatlarining yangi talqini MHT-2008da kiritilishi natijasida, milliy hisoblar tizimi hisoblaridagi bir qator asosiy ko'rsatkichlarning ta'riflarini (MHT-93 bilan solishtirganda) aniqlashtirishni talab qiladi, masalan, mahsulot ishlab chiqarish, oraliq iste'mol, qo'shilgan qiymat, YAIM, daromadning asosiy ko'rsatkichlari (masalan, korporatsiya daromadlarni shakllantirishda ta'lim hisobidagi foyda), davlat boshqaruvi sektorining yakuniy iste'mol xarajatlari, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari ixtiyorida bo'lgan daromadlar hisobidagi jamg'armalar, milliy boylik.

MHT-2008ga muvofiq ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha xarajatlarning kapital hisobida aks ettirilishi ilmiy-tadqiqot xizmatlarining yangi talqinini qo'llash bo'yicha umumiyroq vazifani hal qilish kontekstida ko'rib chiqilishi kerak. Bunday yondashuv kapital hisobi hisob-kitoblarning boshqa hisoblardagi hisob-kitoblarga muvofiqligini ta'minlashi kerak, bu esa ma'lumotlarning ishonchiligi va analitik qiymatining asosiy talabidir.

Milliy hisoblar tizimidagi eng muhim o'zgarishlardan biri ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar xarajatlarini asosiy kapitalni yalpi jamg'arilishi sifatida hisobga olishdir, ya'ni endi ular investitsiyalar sifatida ko'rib chiqiladi. MHT-2008da ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar bo'yicha yo'riqnomaning ta'rifi ishlatilgan. [9] Globallashtirish sharoitida qiymat zanjirlarining roli oshmoqda, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyalashtirish manbalari o'zgarib bormoqda va yangi tashkiliy tuzilmalar paydo bo'lmoqda. Bu kontekstda ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar bo'yicha ma'lumotlarni boshqa ma'lumot manbalari bilan moslashtirish talab qilinadi. Xususan, barcha turdagi iqtisodiy faoliyatning Xalqaro standartlashtirilgan tarmoq klassifikatsiyasi va Xalqaro standartlashtirilgan ta'lim klassifikatsiyasi bilan bog'lanish bo'lishi kerak. [10,11,12] Ushbu masala raqamli texnologiyalarni joriy etish tezligining sezilarli darajada oshishi va bu bilan bog'liq professional muhitdagi o'zgarishlar, shuningdek, mehnat bozorida, shu jumladan xalqaro darajada, yangi kasblarning paydo bo'lishi bilan yanada muhim bo'lmoqda.

Xalqaro darajada ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish, ilmiy faoliyat bilan bog‘liq xizmatlar savdosi, tegishli xarajatlar va ko‘p millatli korxonalar doirasida ishlatilgan xodimlar globallashuvning zamonaviy dunyodagi xususiyatlarini o‘rganishda muhim omillar hisoblanadi.

MHT-2008da aktivlar doirasida intellektual mulk mahsulotlari ajratilgan. Ularga quyidagilar kiradi: ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalari; yer osti resurslarini qidirish va foydali qazilmalar zahiralarini baholash xarajatlari; kompyuter dasturiy ta‘minoti va ma‘lumotlar bazalari; ko‘ngilochar, adabiy va san‘at asarlari asl nusxalari; boshqa intellektual mulk mahsulotlari. Intellektual mulk bilimlar to‘plami bo‘lib, ularni rivojlantiruvchilar bozorga chiqarish yoki ishlab chiqarish jarayonida foyda olish uchun ishlatishi mumkin. Bunday bilimlarni qo‘llash, ehtimol huquqiy himoya orqali cheklanadi. Bilimlar shaklida aktivlardan foydalanish ularning egalariga monopoliyalik foyda keltiradi, eski yoki mualliflik huquqlari bilan himoyalangan bilimlar esa aktiv bo‘lib qolmaydi.

“Yo‘riqnomada” ta‘kidlanishicha, iqtisodiy mulk bilan bevosita bog‘liq xavflarni qabul qilish mulk egasining aktivlarni ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish, shuningdek, ularning yo‘qolishi uchun javobgarligini anglatadi. Intellektual mulk mahsulotlari holatida, texnik xizmat ko‘rsatish, patentlar, mualliflik huquqlari yoki boshqa ro‘yxatga olish hujjatlari uchun to‘lovlarni amalga oshirish mas‘uliyatini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, IMMni foydalanishda himoya yoki maxfiylikning to‘satdan tugashi monopoliyaning kuchi va raqobatbardoshligini zaiflashtirishga olib keladi, chunki raqobatchilar ham mazkur intellektual mulk mahsulotiga kirish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin deb ta‘kidlanadi.[13]

MHT-2008da patentlar aktiv sifatida ko‘rilmaydi, balki patent kelishuvlari sifatida qaraladi, ya‘ni xizmatlar yoki aktivlarni sotib olish uchun to‘lovlar amalga oshiriladigan litsenziya turi sifatida. Patentlanadigan obyektlar endi ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar kategoriyasiga kiritilgan. Shuni ta‘kidlash kerakki, MHT-2008da asosiy fondlar sifatida hisobga olingan ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar innovatsion jarayonlarning faqat bir qismini o‘z ichiga oladi va ular turli sohalarni qamrab olishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So‘nggi vaqtlarda global iqtisodiyotda muhim o‘zgarishlar yuz berdi, bu o‘zgarishlar asosan ishlab chiqarish jarayonlarida axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining o‘sib borayotgan roli, nomoddiy aktivlar va xizmatlarning ahamiyatining oshishi, milliy iqtisodiy tizimlarning globallashuvi va ijtimoiy islohotlarning amalga oshirilishi bilan bog‘liq. Bu o‘zgarishlar asosan ilm-fan muammolarini aks ettirish ehtiyojiga mos keladigan, sifatli ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlarni olish zaruriyati bilan bog‘liq, bu esa, o‘z navbatida, muhim ko‘rsatkichlarni shakllantirish va MHT-2008 hisoblarida hisoblashning metodologik asoslarini ishlab chiqishni talab qiladi, bu orqali ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalarning eng muhim sohalarni ajratib ko‘rsatish, ustuvor yo‘nalishlarni belgilash va ularning iqtisodiy ta‘sirini aniqlash mumkin bo‘ldi.

Ma‘lumki, intellektual mulk mahsulotlari ishlab chiqarishda qo‘llaniladi va boshqa mamlakatda yalpi qo‘shilgan qiymatni hosil qiladi va bu qo‘shilgan qiymat ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi IMMga tegishli bo‘lgan asosiy kapital iste‘molini o‘z ichiga oladi. Mutaxassislar ta‘kidlashicha, ishlab chiqarishni bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chirish va transfer narxlarini belgilash aholining ixtiyoridagi daromadlariga ta‘sir ko‘rsatmasligini va millatning farovonligini baholashda tobora ko‘proq asos bo‘lib xizmat qilishini ta‘kidlaydilar.

O‘zbekiston Respublikasining statistikasida, iqtisodiyotni strukturaviy qayta tuzishning sifatli ma‘lumot ta‘minoti talablarining oshishi sharoitida, intellektual resurslardan foydalanish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiyot uchun intellektual mulk mahsulotlarini (IMM) tarmoq sektorlarida, mintaqaviy va makroiqtisodiy jarayonlar darajasida hisobga olish metodologiyasini ishlab chiqish bilan bog‘liq vazifalar dolzarbligi yuqori ahamiyatga ega. Ushbu vazifalarni to‘g‘ri hal qilish, asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning dinamikasini model qilishda hisobga olinadigan omillar ro‘yxatini kengaytirishga imkon yaratib va shu asosda davlat dasturlari va milliy loyihalarning tegishli maqsadli ko‘rsatkichlarini to‘g‘rilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy hisoblarning zamonaviy tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 691-son [qarori](#)
2. Система национальных счетов 2008 (CHC, 2008). Unstats.un.org. [Электронный ресурс]. URL: <https://unstats.un.org/unsd/nationalaccount/docs/sna> 2008 russian.pdf (дата обращения: 24.09.2025).
3. Handbook on Deriving Capital Measures of Intellectual Property Products (OECD, 2010). Oecd. [Электронный ресурс]. URL: https://www.oecd-ilibrary.org/economics/handbook-on-deriving-capital-measures-of-intellectual-propertyproducts_9789264079205-en (дата обращения: 24.09.2025).
4. Manual on Statistics of International Trade in Services, 2010. (MSITS 2010, Geneva, Luxembourg, Madrid, New York, Paris and Washington D.C. 2012). Unstats.un.org. [Электронный ресурс]. URL: https://unstats.un.org/unsd/publication/seriesm/seriesm_86rev1e.pdf (дата обращения: 21.09.2025).

5. Manual on Statistics of International Trade in Services, 2010. (MSITS 2010, Geneva, Luxembourg, Madrid, New York, Paris and Washington D.C. 2012). Unstats.un.org. [Электронный ресурс]. URL: https://unstats.un.org/unsd/publication/seriesm/seriesm_86rev1e.pdf (дата обращения: 25.09.2025).
6. Extended Balance of Payments Services classification (EBOPS, 2010). Oecd.org. [Электронный ресурс]. URL: <https://www.oecd.org/sdd/its/EBOPS-2010.pdf> (дата обращения: 24.09.2025).
7. Contreras J.L. Intellectual Property Licensing and Transactions. Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022.
8. Heer C., Cerilli D., Kutsyna D., Latoszevska A. Statistics on the Value and Importance of Intellectual Property. Heer Law: Intellectual Property Law & Litigation. [Электронный ресурс]. URL: <https://www.heerlaw.com/value-intellectual-property-statistics> (29.08.2024 ёкшофе йшдштвш. Электрон ахборот ресурс.)
9. Addressing the Challenges of Globalization in National Accounts. Brent R. Moulton and Peter van de Ven Revised February 2022 (first version, February 2018).
10. Mark de Haan, Joseph Haynes. R&D capitalisation: where did we go wrong?. Eurostat Review on National Accounts and Macroeconomic Indicators. 2018.№1. P.7–34. URL: <https://ec.europa.eu/eurostat/cros/system/files/euroissue1-2018-article1.pdf>
11. Международная стандартная отраслевая классификация всех видов экономической деятельности Четвертый пересмотренный вариант (Серия М № 4/Rev.4). Организация Объединенных Наций Нью-Йорк, 2009 год.
12. Международная стандартная классификация образования МСКО 2011. Организации Объединенных Наций по вопросам образования, науки и культуры (ЮНЕСКО). UNESCO-UIS 2013.
13. Addressing the Challenges of Globalization in National Accounts. Brent R. Moulton and Peter van de Ven Revised February 2022 (first version, February 2018).
14. Muallif tomonidan tuzilgan ma'lumotlar
15. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi – rasmiy veb-sayt: stat.uz



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI